

“TASDIQLANGAN”

**“Kapitalbank” ATB
aksiyadorlarining
2019-yil 30-dekabrda
Umumiy majlisida**

4/2019-son majlis bayoni)

Majlis raisi

M.A. Abdusamadov

**“Kapitalbank” ATB aksiyadorlari
Umumiy majlisi to‘g‘risida Nizom(Yangi
tahriri)**

Toshkent - 2019

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining Umumiy majlisi to‘g‘risidagi Nizom (bundan quyida matn bo‘yicha – “Nizom”) O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahrir), “Aksiyadorlar jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek “Kapitalbank” ATB Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi va Korporativ boshqaruv siyosati va boshqa mahalliy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Nizom “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining Umumiy majlisini tayyorlash va o‘tkazish tartibini, qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish tamoyillarini belgilab beradi.

3. Aksiyadorlarning Umumiy majlisi “Kapitalbank” ATB (bundan quyida matn bo‘yicha – bank) ning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

4. Bank aksiyadorlarining Umumiy majlisini olib borish protseduralari va reglamentini barcha aksiyadorlarga teng munosabatni ta‘minlaydigan qilib belgilash bank aksiyadorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilishning zarur sharti hisoblanadi.

5. Bank har yili 27-iyunda aksiyadorlarning Yillik umumiy majlisini o‘tkazishi shart. Agar belgilangan kun ish kuni bo‘lmagan hollarda, aksiyadorlarning Yillik umumiy majlisi 27-iyundan keyingi birinchi ish kunida o‘tkaziladi.

Bankning Kuzatuv kengashi zaruriyat tug‘ilgan hollarda aksiyadorlarni oldindan xabardor qilib aksiyadorlarning Yillik umumiy majlisini boshqa sanada (lekin moliya yili tugagandan so‘ng ko‘pi bilan olti oydan kechikmay) o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqiga ega.

6. Bank aksiyadorlarining Yillik umumiy majlisida qonunchilik va bank Ustaviga muvofiq aksiyadorlarning Yillik umumiy majlisida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masalalar hal qilinadi.

7. Aksiyadorlarning Yillik umumiy majlisidan tashqari o‘tkaziladigan majlislar navbatdan tashqari majlis hisoblanadi.

8. Aksiyadorlarning Umumiy majlisini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarning Umumiy majlisini o‘tkazish sanasi, uning o‘tkazilishi to‘g‘risida aksiyadorlarga xabar berish shakli, aksiyadorlarga taqdim etiladigan materiallar (axborot) ro‘yxati amaldagi qonunchilik va bank Ustavi bilan belgilanadi.

II. AKSIYADORLAR UMUMIY MAJLISINING VAKOLATLARI

9. Bank Ustavining 45-bandida ko‘rsatilgan masalalar aksiyadorlar Umumiy majlisining mutlaq vakolatiga kiradi.

Bank Ustavining 45-bandida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha qarorni aksiyadorlar Umumiy majlisi aksiyadorlarning - ovoz huquqi bo‘lgan aksiyalar egalari ovozlarining to‘rtidan uch qismidan iborat bo‘lgan ko‘pchilik ovozi (kvalifikatsion ko‘pchilik) bilan qabul qilinadi.

III. AKSIYADORLARNING UMUMIY MAJLISIDA ISHTIROK ETISH HUQUQI. AKSIYADORLAR VA ULARNING VAKOLATLI VAKILLARINI RO‘YXATGA OLIISH

10. Bank aksiyadorlarining Aksiyadorlar umumiy majlisining o‘tkazilish sanasidan 3 kun oldin shakllantirilgan reyestrda qayd qilingan aksiyadorlar Aksiyadorlarning umumiy majlisida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

11. Bank aksiyadorlarining reyestri bankning topshirig‘i asosida markaziy ro‘yxatga

oluvchi vazifasini bajaradigan Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyi tomonidan shakllantiriladi. Bank aksiyadorning talabi bo'yicha unga aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlari reyestriga kiritilganligi to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

12. Bank aksiyadorlari reyestriga, uni shakllantirish sanasida shu reyestriga kiritilmagan shaxsning buzilgan huquqlari tiklangan yoki uni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilash hollardan tashqari, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

13. Aksiyadorlar Umumiy majlisida ishtirok etish huquqini aksiyador shaxsan o'zi yoki o'zining vakili orqali amalga oshirishi mumkin. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning Umumiy majlisida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish ko'radi. Ovoz berishga ishonchnoma vakolat bergan aksiyador va vakil haqidagi ma'lumotdan (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari) iborat bo'lishi kerak. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berishga ishonchnoma notarius tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga ishonchnoma uning rahbari imzosi bilan shu yuridik shaxsning muhrini ilova qilib beriladi va shu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjudligida) tasdiqlanadi.

Aksiyadorlarning Umumiy majlisida, shuningdek bankning Ichki audit departamenti direktori, auditorlik tashkiloti vakili, bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, bankning Kuzatuv kengashi, bank Boshqaruvi a'zolari, shu jumladan bank Kuzatuv kengashi taklif etgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

14. Aksiyadorlarning umumiy majlisida ishtirok etish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakillari majlis o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan manzil bo'yicha va vaqtda ro'yxatdan o'tishlari kerak.

15. Bank aksiyadorlari reyestriga muvofiq qayd qilish ro'yxati tuziladi. Qayd qilish ro'yxati muqovalangan, nomerlangan, tikilgan va bank muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

16. Aksiyadorlarning Umumiy majlisini o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd qilish ro'yxatiga imzo chekadilar va har bir aksiyadorning bank aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlar bo'yicha aniqlangan ovoz berish huquqi bo'lgan aksiyalari miqdoridan kelib chiqqan holda ovoz berish uchun byulleten va qo'yilgan masalalar bilan bog'liq materiallar (axborot) ni oladilar.

17. Agar aksiyadorlarning Umumiy majlisi ishtirokchisi bitta yoki bir nechta aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, unga o'zi vakili bo'lgan aksiyador (aksiyalar)ning ovoz berish uchun byulletenlari beriladi, qayd qilish ro'yxatida esa o'zi vakili bo'lgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga: “ (miqdori) ovoz huquqiga ega aksiyalar bo'yicha “_____” dagi __son ishonchnoma bo'yicha” deb qayd qilinadi va vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlarning umumiy majlisida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar elektron pochta bo'yicha (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlab), shuningdek o'z vakolatlarini vakillariga berish yoki “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining Umumiy majlisini videokonferens aloqa tizimidan foydalanib o'tkazish tartibiga muvofiq (ushbu nizomga 1-ilova) aksiyadorlarning Umumiy majlisini videokonferensiya rejimida o'tkazish yo'li bilan ovoz berishlari mumkin.

IV. AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY MAJLISINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK

18. Aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazishga tayyorgarlikni bank Kuzatuv kengashi olib boradi, u quyidagilarni belgilaydi:

aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazish sanasi, joyi va vaqti;
aksiyadorlar Umumiy majlisining kun tartibi;

aksiyadorlar Umumiy majlisi o'tkazilishi to'g'risida xabar berish uchun bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi;

aksiyadorlarning Umumiy majlisida ishtirok etish uchun bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi;

aksiyadorlarning Umumiy majlisi o'tkazilishi to'g'risida aksiyadorlarga xabar berish tartibi; aksiyadorlarning Umumiy majlisi o'tkazilishidan oldin majlis kun tartibi bo'yicha aksiyadorlarga beriladigan axborot (materiallar) ro'yxati, shu jumladan bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlar Umumiy majlisining kun tartibiga nisbatan pozitsiyasi;

aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro aloqa uchun mas'ul bank xodimi yoki bo'linmasi; ovoz berish uchun byulleten shakli va matni.

Aksiyadorlar Umumiy majlisining kun tartibiga muayyan masalani qo'yish mohiyatiga ta'sir qilmaydigan ifodalarni (shu jumladan «har xil», «boshqa», «boshqalar» va h.k.) kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

19. Aksiyadorlarning Umumiy majlisi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar Yagona korporativ axborot portalida, bank veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarning reyestri asosida elektron pochta bo'yicha amaldagi qonunchilik bilan o'rnatilgan muddatlarda aksiyadorlarga yuboriladi.

20. Aksiyadorlar Umumiy majlisi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

bank nomi, joylashgan joyi (pochta manzili) va elektron pochta manzili; aksiyadorlar Umumiy majlisi o'tkaziladigan sana, vaqt va o'tkazish joyi;

bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasi;

aksiyadorlar Umumiy majlisi kun tartibiga kiritilgan masalalar;

aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga taqdim etilishi kerak bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

21. Aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga taqdim etilishi kerak bo'lgan axborot (materiallar)ga bankning yillik hisobi, bank Taftish komissiyasi va auditorlik tashkilotining bankning yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha xulosasi, shuningdek bank Kuzatuv kengashi va bank Taftish komissiyasi, bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, bank Ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoki bank Ustavining yangi tahrirdagi loyihasi kiradi.

21.1. Aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga taqdim etilishi shart bo'lgan qo'shimcha axborot (materiallar) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

22. Aksiyadorlar (aksiyador) bankning moliyaviy yili tugagandan so'ng 90 (to'qson) kundan kechikmagan muddatda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan o'rnatilgan tartibda aksiyadorlarning yillik Umumiy majlisi kun tartibiga masalalar kiritish va bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, bank Kuzatuv kengashi va bank Taftish komissiyasiga soni bu organning son tarkibidan oshmaydigan miqdorda nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega.

22.1. Aksiyadorlar (aksiyador) o'zlari bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, bank Kuzatuv kengashi va bank Taftish komissiyasiga ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik Umumiy majlisi o'tkazilishi e'lon qilingan sanadan boshlab uch ish kunidan kechikmay o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

22.2. Qonunchilikda o'rnatilgan tartibda bank oddiy aksiyalarining kamida 1% ga ega bo'lgan aksiyadorlar bank Kuzatuv kengashining majlisini chaqirishni talab qilishi va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organlari a'zolariga nomzodlar bo'yicha, ularni aksiyadorlarning Umumiy majlisi o'tkazilishigacha almashtirish imkoniyati bilan, takliflar

kiritishi mumkin.

23. Aksiyadorlar Umumiy majlisi kun tartibiga masala yozma ravishda, uni kun tartibiga qo'yishning asoslari, masalani kiritgan aksiyadorlar (aksiyador)ning nomi, ularga tegishli aksiyalar miqdori va tipini ko'rsatgan holda kiritiladi.

Bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, bank Kuzatuv kengashi va bank Taftish komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish, shu jumladan o'zining nomzodini ko'yish to'g'risidagi takliflar kiritilgan hollarda nomzodning nomi, unga tegishli aksiyalar soni va tipi (agar nomzod bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatgan aksiyadorlarning nomlari, ularga tegishli aksiyalar miqdori va tipi ko'rsatiladi.

24. Bank Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi va moliyaviy yil tugagandan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlar Umumiy majlisi kun tartibiga kiritish yoki ko'rsatilgan kun tartibiga kiritishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

25. Aksiyadorlar (aksiyador) kiritgan masala, xuddi bankning Minoritar aksiyador qo'mitasi, bank Kuzatuv kengashi, bank Taftish komissiyasiga saylovlar bo'yicha ko'rsatilgan nomzodlar ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi shart bo'lganidek, aksiyadorlar Umumiy majlisi kun tartibiga kiritilishi shart, bunda quyidagi:

aksiyadorlar (aksiyador) ushbu Nizom bilan belgilangan muddatga rioya qilmagan;

aksiyadorlar (aksiyador) bankning ushbu Nizomda ko'zda tutilgan ovoz huquqiga ega aksiyalarning egalari hisoblanmaydigan;

ushbu Nizomning 23-bandida ko'zda tutilgan bankning saylanadigan organlariga ko'rsatiladigan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmagan;

taklif bankning amaldagi Ustaviga va O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonuni (yangi tahriri) muvofiq bo'lmagan hollar bundan istisno hisoblanadi.

26. Bank Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlarning Umumiy majlisi kun tartibiga yoki nomzodni bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, bank Kuzatuv kengashi va bank Taftish komissiyasiga saylovlar bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslangan qarori masalani kiritgan yoki taklifni taqdim etgan aksiyador (aksiyadorlar)ga u qabul qilingan sanadan boshlab uch kunidan kechikmay yuboriladi.

27. Bank Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlarning Umumiy majlisi kun tartibiga yoki nomzodni bank Kuzatuv kengashi va bank Taftish komissiyasiga saylovlar bo'yicha nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori bo'yicha sudga shikoyat qilish mumkin.

V. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY MAJLISINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK

28. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisi bank Kuzatuv kengashining qarori bo'yicha uning o'z tashabbusi, bank Taftish komissiyasining, shuningdek yozma talabnomani taqdim etish sanasida bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida 5 (besh) foizining egasi bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) ning yozma talabnomasi asosida o'tkaziladi.

29. Bank Kuzatuv kengashi bank Taftish komissiyasi yoki bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida 5 (besh) foizining egasi bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) ning yozma talabnomasi bo'yicha aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini o'tkazish to'g'risidagi yozma talabnoma taqdim etilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechikmay chaqiradi.

30. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini o'tkazish to'g'risidagi

talabnomada majlis kun tartibiga kiritilishi zarur bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablarini ko'rsatgan holda ifodalangan bo'lishi kerak.

31. Bank Kuzatuv kengashi Taftish komissiyasining yoki bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida 5 (besh) foizining egasi bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) ning yozma talabnomasi bo'yicha chaqirilayotgan aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisi kun tartibidagi masalalar ifodasiga o'zgartirish kiritish huquqiga ega emas.

32. Agar aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirish to'g'risidagi talabni aksiyador (aksiyadorlar) taqdim etadigan bo'lsa, bu talabda majlis o'tkazilishini talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ning ismi (nomi) unga tegishli aksiyalarning miqdorini, tipini ko'rsatgan holda keltirilgan bo'lishi zarur.

33. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirishni talab qilayotgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

34. Bank Kuzatuv kengashi bank Taftish komissiyasi yoki bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida 5 (besh) foizining egalari bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar)ning navbatdan tashqari Umumiy majlisni chaqirish to'g'risidagi talabi taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kun mobaynida aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirish yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi zarur.

35. Bank Taftish komissiyasi yoki bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida 5 (besh) foizining egasi hisoblanadigan aksiyador (aksiyadorlar) talabi bo'yicha aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksionerlar) talablar taqdim etilgan sanada bankning ovoz huquqiga ega bo'lgan aksiyalari 5 (besh) foizining egasi hisoblanmasa;

aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisi kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham uning vakolatiga kirmaydi;

kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala qonunchilik talablariga muvofiq emas.

36. Bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risidagi asoslangan qarori uning chaqirilishini talab qilayotgan shaxslarga qaror qabul qilinganidan keyin uch kundan kechikmasdan yuboriladi.

37. Bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

38. Agar 30 (o'ttiz) kun mobaynida bank Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisi o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilmasa yoki uning chaqirilishini ushbu Nizomning 35-bandida ko'rsatilmagan sabablarga ko'ra rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisi uning chaqirilishini talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday holda aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini o'tkazishga tayyorgarlik xarajatlari aksiyadorlarning Umumiy majlisi qarori bo'yicha bank mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

VI. AKSIYADORLAR UMUMIY MAJLISINING KVORUMI

39. Aksiyadorlar Umumiy majlisi, agar ro'yxatga olish vaqti tugagan paytda aksiyadorlar Umumiy majlisida ishtirok etish uchun bank tarqatgan va joylashtirgan ovoz huquqiga ega aksiyalari ovozlarning jami 50 (ellik) foizdan ortiq aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar

(ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, qonuniy (kvorumga ega) bo'ladi.

40. Aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazish uchun kvorum yo'qligida aksiyadorlarning takroriy Umumiy majlisini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning yangi Umumiy majlisini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

41. O'tkazilmagan aksiyadorlar Umumiy majlisi o'rniga chaqirilgan aksiyadorlarning takroriy Umumiy majlisi, agar ro'yxatga olish vaqti tugagan paytda unda ishtirok etish uchun bank joylashtirgan ovoz huquqiga ega aksiyalari ovozlarning jami 40 (qirq) foizdan ortiq aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, qonuniy huquqqa ega bo'ladi.

42. Aksiyadorlarning yangi Umumiy majlisi o'tkazilishi to'g'risida ushbu Nizomda ko'zda tutilgan tartibda xabar beriladi.

43. Kvorum yo'qligi munosabati bilan aksiyadorlarning Umumiy majlisini o'tkazish sanasini kamida 20 kunga ko'chirishda aksiyadorlar Umumiy majlisida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar o'tkazilmagan aksiyadorlar Umumiy majlisida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestriga muvofiq aniqlanadi.

VII. AKSIYADORLAR UMUMIY MAJLISINI OLIB BORISH TARTIBI VA UNING ISHCHI ORGANLARI

44. Aksiyadorlarning Umumiy majlisini olib borish tartibi ushbu Nizomga muvofiq aksiyadorlarning har bir Umumiy majlisida tasdiqlanadi.

45. Aksiyadorlarning Umumiy majlisini olib borish tartibi majlisning boshlanish vaqti va majlis ishining mo'ljallanayotgan tugatish vaqtini, so'zga chiqishlar va tanaffuslar vaqtini, kun tartibidagi masalalar ketma-ketligini, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini ko'zda tutadi.

46. Aksiyadorlarning Umumiy majlisini bank Kuzatuv kengashining raisi ochadi va ishchi organlar – aksiyadorlar Umumiy majlisining hay'ati, hisob komissiyasi va kotibini saylashni taklif qiladi.

47. Aksiyadorlar Umumiy majlisining hay'ati, hisob komissiyasi va kotibi aksiyadorlarning Umumiy majlisida saylanadi. Bunda aksiyadorlar Umumiy majlisining hay'ati tarkibiga lavozimi bo'yicha bank Kuzatuv kengashining raisi va a'zolari kiradi. Bank Minoritar aksiyadorlari qo'mitasi, bank Kuzatuv kengashi, bank Taftish komissiyasi va bank Boshqaruvi a'zolari aksiyadorlar Umumiy majlisining kotibi etib tasdiqlana olmaydilar.

48. Aksiyadorlarning Umumiy majlisida raislik qiluvchi majlisning borishiga rahbarlik qiladi, aksiyadorlarning Umumiy majlisi ishchi organlarining harakatlarini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma'ruzachilarning chiqish vaqtini chegaralaydi, majlisni olib borish va ovoz berish bo'yicha tushuntirishlar beradi, zalda tartib bo'lishini nazorat qiladi. Aksiyadorlarning Umumiy majlisida raislik qiluvchi aksiyadorlar Umumiy majlisining audio-video yozuvlarini amalga oshirish va videoyozuvlarni Internet tarmog'ida olib ko'rsatish huquqiga ega.

49. Majlis mobaynida yuzaga keladigan joriy masalalarni raisning o'zi yakka tartibda: aksiyadorlar Umumiy majlisida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha har bir ishtirokchi ajratilgan vaqt chegarasida so'zga chiqish huquqidan foydalanishi mumkin degan asosiy tamoyildan kelib chiqqan holda hal qiladi. Kun tartibidagi masalalar muhokamasida ishtirok etishni istaganlar aksiyadorlar Umumiy majlisi kotibiga muhokamasida ishtirok etishni istagan masalani ko'rsatgan holda yozma talabnoma beradi.

50. Ovozlarini hisoblash, aksiyadorlarning Umumiy majlisida ishtirok etish uchun

aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish uchun byulletenlarni berish uchun bank Kuzatuv kengashi son va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning Umumiy majlisida tasdiqlanadigan hisob komissiyasini tuzadi.

51. Hisob komissiyasi tarkibi uch kishidan kam bo'lmashligi kerak. Hisob komissiyasiga bankning Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, bankning Kuzatuv kengashi, bankning Taftish komissiyasi va bank Boshqaruvi a'zolari kira olmaydilar.

52. Hisob komissiyasi aksiyadorlarning Umumiy majlisini o'tkazish uchun kворum mavjudligini aniqlaydi, aksiyadorlar (ularning vakillari)ning aksiyadorlar Umumiy majlisida ovoz berish huquqini amalga oshirish munosabati bilan yuzaga kelgan masalalarni tushuntiradi, ovoz berishga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqi va ovoz berishning o'rnatilgan tartibini ta'minlaydi, ovozlarni hisoblaydi va ovoz berish natijalarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini arxivga topshiradi.

53. Aksiyadorlar Umumiy majlisining Kotibi:

aksiyadorlar Umumiy majlisi olib borilishining bayonini tuzib boradi;

majlis kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishni istaganlarni yozma talabnomalar bo'yicha ro'yxatga yozib boradi;

aksiyadorlar Umumiy majlisi yopilganidan so'ng 10 kundan kechikmay ikki nusxada aksiyadorlar Umumiy majlisining majlis bayonini tuzadi.

VIII. OVOZ BERISH TARTIBI VA OVOZLARNI HISOBLASH

54. Aksiyadorlar Umumiy majlisida ovoz berish "bankning bitta ovoz berish huquqiga ega aksiyasi – bitta ovoz" tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi, bankning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berish o'tkaziladigan hollar va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollar bundan istisno.

55. Aksiyadorlar Umumiy majlisining ovoz berishga qo'yilgan masala bo'yicha qarori aksiyadorlar Umumiy majlisida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning – ovoz huquqiga ega aksiyalar egalarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, bank Ustavining 45-bandi bo'yicha kiritilgan masalalar bundan istisno.

56. Aksiyadorlar Umumiy majlisida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish byulletenlari bilan ovoz beriladi.

57. Ovoz berish uchun byulletenning shakli va matnini bank Kuzatuv kengashi tasdiqlaydi, aksiyadorlar Umumiy majlisi bank Kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmaydigan hollar bundan istisno. Ovoz berish uchun byulleten Umumiy majlisda ishtirok etish uchun aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

58. Ovoz berish uchun byulleten quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: bankning to'liq firma nomi, aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazish sanasi va vaqti, ovoz berishga qo'yilgan har bir masalaning aniq ifodasi va uni ko'rib chiqish navbati, ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha "tarafdor", "qarshi" yoki "betaraf" iboralari ifodalangan ovoz berish variantlari (ovoz berishga qo'yilgan masala "tarafdor" iborasi bilan ifodalanadigan kumulyativ ovoz berish hollaridan tashqari), ovoz berish byulletenini aksiyador (uning vakili) imzolashi zarurligi to'g'risidagi ko'rsatma.

59. Bank Kuzatuv kengashi yoki Taftish komissiyasi a'zosini saylash masalasi bo'yicha ovoz beriladigan hollarda ovoz berish byulletenida nomzod haqida uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'lishi kerak.

60. Ovoz berish byulletenlari bilan ovoz berishda ovoz beruvchi ovoz berish

variantlaridan faqat bittasini qoldirgan masalalar bo'yicha ovozlar hisobga olinadi. Yuqorida ko'rsatilgan talablar buzilgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb tan olinadi va ularda ko'rsatilgan masalalar bo'yicha ovozlar hisobga olinmaydi.

61. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yiladigan bir necha masala bo'lgan hollarda, bitta yoki bir nechta masalaga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan talabga rioya qilmaslik ovoz berish byulletening umuman haqiqiy emas deb tan olinishiga olib kelmaydi.

62. Ovoz berish natijalari bo'yicha Hisob komissiyasi ovoz berish yakunlari bo'yicha bayonnoma tuzadi, u o'z ichiga jumladan aksiyadorlar Umumiy majlisining kvorumi mavjudligi to'g'risida hisob komissiyasi a'zolari imzolaydigan ma'lumotlarni oladi .

Ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar Umumiy majlisining majlis bayoni imzolanganidan so'ng Hisob komissiyasi ovoz berish byulletenlarini muhrlaydi va bank arxiviga saqlashga topshiradi.

Ovoz berish natijalari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar Umumiy majlisining majlis bayoniga qo'shib qo'yilishi kerak.

63. Ovoz berish natijalari ovoz berish o'tkazilgan aksiyadorlar Umumiy majlisida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlar Umumiy majlisi yopilganidan so'ng ovoz berish natijalari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish yo'li bilan aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

IX. AKSIYADORLAR UMUMIY MAJLISINING MAJLIS BAYONI

64. Aksiyadorlar Umumiy majlisining majlis bayoni aksiyadorlar Umumiy majlisi tugagandan so'ng 10 (o'n) kundan kechikmay ikki nusxada tuziladi. Har ikki nusxa aksiyadorlar Umumiy majlisining raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

65. Aksiyadorlar Umumiy majlisining majlis bayonida quyidagilar ko'rsatiladi:

aksiyadorlar Umumiy majlisini o'tkazish sanasi, joyi va vaqti;

aksiyadorlar – bankning ovoz huquqiga ega aksiyalari egalarining umumiy ovozlari soni;

majlisda ishtirok etayotgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlar soni;

majlis raisi (hay'ati) va kotibi, majlis kun tartibi;

so'zga chiqishlarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar, ovoz berish natijalari va aksiyadorlarning Umumiy majlisi qabul qilgan qarorlar.

Aksiyadorlar Umumiy majlisining majlis bayonida so'zga chiqishlarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar va ular bo'yicha ovoz berish natijalari, majlis qabul qilgan qarorlar ifodalangan bo'lishi kerak.

X. YAKUNIY QOIDALAR

65. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlar Umumiy majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqilgan: Korporativ konsultant	Xudayberganov A.S.
Kelishilgan:	
Xatarlarni boshqarish departamenti direktori	Kan T.V.

Ichki audit departamenti direktori v.b.	Kariyev A.S.
Yuridik xizmat departamenti direktori	Pachurin V.V.

**“Kapitalbank” ATB aksiyadorlari Umumiy majlisini videokonferensaloqa tizimidan
foydalanib o‘tkazish
TARTIBI**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu hujjat “Kapitalbank” ATB (bundan quyida matn bo‘yicha – “bank”) aksiyadorlar Umumiy majlisini (bundan quyida matn bo‘yicha – “Majlis”) videokonferensaloqa tizimi (bundan quyida matn bo‘yicha – “VKA”) tayyorlash va o‘tkazish tartibini belgilab beradi.

1.2. VKA tizimi Majlisni bank aksiyadorlari yoki aksiyadorlarning qonuniy vakillari ishtirokida o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Zaruriyat tug‘ilgan hollarda va texnik imkoniyatlar mavjudligida VKA tizimini tashqi VKA tizimlari bilan ulashga yo‘l qo‘yiladi.

1.3. VKA tizimi bank Bosh ofisining muzokaralar zali va bankning boshqa binolari/filiallarida, bank aksiyadorlarining mobil telefonlarida joylashgan videoterminallar, shuningdek videoaloqa funksiyasi bilan jihozlangan 1R- telefoniya tizimi va bank va/yoki boshqa tashkilotlarga tegishli bo‘lgan server va telekommunikatsiya uskunalaridan iborat.

1.4. VKA tizimini texnik jihatdan ta‘minlash, ma‘murlik va rivojlantirishni tashkil qilish bankning Axborot texnologiyalari departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

1.5. Ushbu tartibda quyidagi tushunchalar belgilangan:

videokonferensaloqa – uzoqda joylashgan bir nechta abonentning haqiqiy vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib audio- va videoaxborot bilan almashinish imkoniyati bilan interfaol o‘zaro aloqasi;

videokonferensaloqa seansi – majlisni taklif etilgan ishtirokchilarning masofadan ishtiroki bilan o‘tkazish shaklidagi tashkiliy tadbir (bundan quyida - «VKA seansi»);

VKA seansi tashkilotchisi – Majlis Raisi, bank Kuzatuv kengashi, bank taftish komissiyasi va Boshqaruvi raisi va a‘zolari, Majlis kotibi, Hisob komissiyasi raisi;

VKA ma‘muri – bank Axborot texnologiyalari departamentining VKA tizimining ish qobiliyatini saqlab turish va boshqarish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli shaxsi;

VKA operatori – VKA seansi o‘tkazilishini boshqarib turadigan vakolatli shaxs (Hisob komissiyasi raisi yoki a‘zosi);

VKA ishtirokchisi – VKA tizimiga ulangan videokonferensaloqa apparaturasidan foydalanib o‘rnatilgan tartibda majlisda ishtirok etadigan va ovoz beradigan aksioner yoki aksioner vakili.

2. VKA dan foydalanib kengashlarni tashkil etish tartibi

2.1. VKA ishtirokchilari Tashkilotchilarga Majlis o‘tkazilishidan kamida 3 kun oldin quyidagi axborotni ko‘rsatgan holda VKAdan foydalanib o‘tkaziladigan Majlisda ishtirok etishga yozma shaklda buyurtma yuboradi:

- 1) yuridik shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki nomi;
- 2) ishonchnoma (ishonchnomaning asli ilova qilinadi) sanasi va nomeri ko‘rsatilgan holda vakolatli shaxs yoki aksiyador vakilining familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 3) mobil telefoni nomeri;

- 4) elektron manzili;
- 5) boshqa zaruriy axborot.

2.2. VKA seansi tashkilotchisi majlis o'tkaziladigan kundan kamida 2 kun oldin bankning Axborot texnologiyalari departamentiga VKA dan foydalanib Majlis o'tkazishga buyurtma yuboradi, unda Majlisning sanasi, vaqti va davomiyligi, ishtirokchilarning soni, tadbirni videoga yozib olish zaruriyati ko'rsatiladi.

2.3. VKA ma'muri VKA seansi tashkilotchisidan buyurtmani olib, VKA dan foydalanib o'tkaziladigan majlis sanasi, vaqti va davomiyligini kelishadi.

2.4. VKA seansi tashkilotchisi VKA seansi o'tkazilish kunidan 1 kun oldindan kechikmay Majlis ishtirokchilari va taklif etilgan shaxslarga telefon yoki faksimil aloqa, elektron pochta vositasida yoki boshqa usullar bilan xabar berishni ta'minlaydi.

3. Majlislarni VKA dan foydalanib o'tkazish tartibi

3.1. VKAdan foydalaniladigan Majlis boshlanishidan oldin texnik seans o'tkaziladi.

3.2. Texnik seansni VKA Ma'muri Operator ishtirokida, shuningdek barcha (VKA dan foydalanib o'tkaziladigan Majlisda ishtirok etishga buyurtma bergan) ishtirokchilarni ulagan holda abonent punkti uskunalarining ish qobiliyatini tekshirish, kameralarning ish holatlarini, tovush darajasini sozlash, dasturni Majlis ishtirokchilariga yetkazish maqsadlarida o'tkazadi.

3.3. Texnik seans, agar VKA tashkilotchisining bildirishida boshqa narsa ko'rsatilmagan bo'lsa, Majlis boshlanishidan kamida 30 daqiqa oldin boshlanadi.

3.4. Operator texnik seans to'xtatilishigacha, lekin Majlis boshlanishidan kamida 5 daqiqa oldin:

- seans ishtirokchisiga (matn shaklidagi axborot) yuridik shaxsning (vakilning F.I.O.I., ishonchnoma sanasi va nomeri) familiyasi, ismi, otasining ismi yoki nomini xabar qiladi;

- seans ishtirokchisiga bu ishtirokchiga tegishli bo'lgan ovoz huquqiga ega aksiyalar miqdori (dona) ni ma'lum qiladi (matn shaklidagi axborot);

- bank aksiyadorlarini qayd qilish ro'yxatidagi barcha seans ishtirokchilarini (elektron manzili yoki biror-bir maxsus 1R manzilini ko'rsatish yo'li bilan) belgilaydi;

- barcha seans ishtirokchilarining ovoz huquqiga ega aksiyalari miqdorini aniqlaydi.

3.5. Barcha abonentlik punktlarida mikrofonlar ulangan bo'lishi kerak.

3.6. VKA seansining ish vaqti Majlis reglamentiga muvofiq boshlanadi.

3.7. Seans ishtirokchilari 2 metrdan uzoq bo'lmagan masofada yuzlarini terminal kamerasi tomonga qaratgan holda bo'lishi kerak. Masalalarni aksiyadorlar majlisini o'tkazish reglamentiga muvofiq faqat:

- qo'shimcha chiqishlar, luqmalar va munozaralar, shuningdek masalalarni muhokama qilish uchun ajratilgan vaqtda;

- ovoz berishda ishtirok etishda muhokama qilishga ruxsat beriladi.

Aniq va tushunarli, oddiy so'zlashuvdagi kabi ovoz balandligida, ortiqcha shovqin chiqarmasdan so'zlash zarur.

3.8. VKA dan foydalanib Majlis o'tkazish vaqtida ishtirokchilar VKA seansini o'tkazishga halaqit beradigan har qanday harakatlarni (u yoq bu yoqqa harakatlanish, ishga aloqador bo'lmagan so'zlashuvlar, deraza va eshiklarni ochish, mobil qurilmalar va telefon aloqasining har qanday turlaridan foydalanish) istisno etishlari, shuningdek barcha tavsiyalarga rioya qilishlari va texnik seans o'tkazish vaqtida olgan uskunalarining sozlangan holatini saqlashlari kerak.

3.9. VKA tizimiga texnik xizmat ko'rsatish maqsadlarida VKA ma'muri abonent punktlaridagi texnik mutaxassislar bilan qo'shimcha texnik seanslar o'tkazishi mumkin.

3.10. Agar VKA seansi vaqtida videoyozuvlar qilingan bo'lsa, VKA ma'muri kengash

yo'zuvining nusxasini VKA tashkilotchisiga VKA seansi tugagandan so'ng 2 kun mobaynida beradi.

4. Majlis ishtirokchilarining VKA dan foydalanib ovoz berish tartibi

4.1. Har bir ma'ruzachining chiqishidan so'ng VKA seansi tashkilotchisi – Majlis raisi Majlis kun tartibining har bir masalasi bo'yicha qaror loyihasini o'qib eshittiradi va ovozga qo'yishga taklif etadi.

4.2. Ovoz berishda VKAning har bir Ishtirokchisi har bir masala bo'yicha o'z javobini ovoz berish variantlaridan biri («tarafdor», «qarshi», «betaraf») bilan ovoz chiqarib VKA operatoriga aytishi kerak.

Masalan: 1) birinchi masala bo'yicha "Tarafdorlar"; 2) ikkinchi masala bo'yicha "Qarshilar"; 3) ... o'ninchi masala bo'yicha "Betaraf".

Shundan keyin VKA operatori VKA ishtirokchisi ovoz bergan har bir masala bo'yicha ovoz berish byulletenini qo'lda to'ldiradi.

4.3. Majlis kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha ovoz berib bo'linganidan so'ng VKA operatori seansning barcha ishtirokchilariga ovoz berish tugaganligini (matn shaklidagi axborot) xabar qiladi va byulletenda ovoz berish VKA yo'li bilan o'tganligini qayd qiladi.

4.4. Seans ishtirokchilari bilan yozishmalar bosib chiqariladi va qog'oz shaklida saqlanadi, Operator imzosi bilan tasdiqlanadi va byulletenlar bilan birga Hisob komissiyasi bayonnomasiga ilova qilinadi.

4.5. Ishtirokchilar bilan yozishmalar, shuningdek VKA ishtirokchilari nomidan VKA Operatori to'ldirgan byulletenlar ochiq ovoz berishdagiga tyenglashtiriladi.

4.6. Majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish yakunlari to'ldirilgan va imzolangan byulletenlar, shuningdek Operator imzosi bilan VKA orqali olingan yozishmalar asosida hisoblanadi.

5. VKA ma'murining majburiyatlari

5.1. VKA ma'muri:

5.1.1. VKA uskunasi konfiguratsiyasini va sozlashlarni boshqaradi, shu jumladan dasturiy ta'minotni yangilaydi va uskunani modernizatsiyalaydi;

5.1.2. Tashkilotchi tomonidan VKA operatorlari vakolatlarini belgilaydi;

5.1.3. VKA seansi ishtirokchilarini ulash (qayta ulash, uzish)ni amalga oshiradi;

5.1.4. VKA seanslari sifati va ishonchliligini oshirish maqsadida VKA operatori va Ishtirokchilariga uslubiy va texnik yordam ko'rsatadi;

5.1.5. VKA tizimining boshqalarga tegishli bo'lgan tashqi VKA tizimlariga ulanishining texnik imkoniyatlarini aniqlaydi va ular mavjudligida bunday ulanishni ta'minlaydi;

5.1.6. VKA seansi vaqtida majlis ishtirokchisining harakatlarini tushuntiradi;

5.1.7. VKA tizimini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi.

6. VKA operatorining majburiyatlari

6.1. VKA operatori:

6.1.1. VKA seansini tayyorlash, o'tkazish va tugatishning borishida tizim ishini tezkor nazorat qiladi va boshqaradi;

6.1.2. VKA seansi ishtirokchilarining F.I.Sh., ularga tegishli aksiyalar miqdorini

aniqlaydi, ovoz berish natijalarini chiqaradi;

6.1.3. o'rnatilgan tartibda yozishmalarni, byulletenlarni qog'oz shaklida rasmiylashtiradi;

6.1.4. tizim ishida texnik nosozliklar yuzaga kelganda darhol VKA Ma'murini xabardor qiladi;

6.1.5. VKA tizimidan foydalanib Majlisni o'tkazish Reglamentiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

7. VKA ishtirokchilarining majburiyatlari

7.1. Ishtirokchilarning majburiyatlari:

7.1.1. VKA tashkilotchisining bildirishnomasi asosida abonent punktiga o'z vaqtida kelish;

7.1.2. abonent punkti uskunalari ulash va ish qobiliyatini tekshirish;

7.1.3. yuzaga kelgan nosozliklarni VKA seansi boshlangunicha bartaraf etish choralarini ko'rish;

7.1.4. yuzaga kelgan nosozliklarni VKA seansi boshlangunicha bartaraf etish imkoni yo'qligida VKA operatorini xabardor qilish;

7.1.5. abonent punktining VKA uskunasi kamerasini zaruriy tarzda o'rnatish;

7.1.6. VKS aloqa operatorini seans vaqtida aloqa uzilib qolganligi va ko'rilayotgan choralar to'g'risida darhol xabardor qilish;

7.1.7. materiallarni olganligini tasdiqlash va kun tartibining tegishli masalalari bo'yicha ovoz berish.